

**BADIIY TAFAKKUR TARZINI SHAKLLANTIRISH – SHAXS  
RIVOJINING BOSH OMILI (Muqimiy asarlari misolida)**

*Muxlisa Satriddinova Muhitdinova*

*TDIU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi,*

*+998909198661*

*<https://scholar.google.ru/citations?user=5hz6D58AAAAJ&hl=ru>*

**Maqola annotatsiyasi. (Abstract)** Jahon miqyosida bugungi kunda talaba-yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, ularning faol kitobxon bo‘lishiga erishishda ijtimoiy institutlarning rolini oshirish, mutolaa sohasida dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlarda zamonaviy sharoitda aholi, shu jumladan, yoshlarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibotning innovatsion shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilangan. Dunyodagi har bir xalqning jahon hamjamiyatida tan olingan o‘rniga ega bo‘lishida umuminsoniy manfaatlarga mos qadriyatlari, borliqni, hayotni, dunyo voqeliklarini idrok va talqin etishning o‘ziga xos shakl hamda tizimiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi va adabiyot beqiyos imkoniyatlarga ega. Ajdodlar ma‘naviy merosini talaba- yoshlar ongu qalbiga singdirish ta‘lim-tarbiya sohasidagi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Adabiy meros vositasida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy qadriyat va tarixiy merosga jamiyatdagi ma‘naviy tanazzullarni oldini olish, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga da‘vat etilgan OTM faoliyatini takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Dunyoda talabalar o‘rtasida individual, guruhiy hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil etish jarayonini rivojlantirish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash, talabalarda kitobxonlik qiziqishi, mezonlarni aniqlash, adabiy ta‘limning badiiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni va rolini oshirishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Одна из основных научных проблем в мире текстологии - изучение истории и редактирование текста. Изучение этого вопроса имеет особое значение, поскольку история текста включает в себя изменения в лаборатории поэтического творчества, от целей и планов в процессе формирования текста до текущего состояния текста. Литературное редактирование в нашей стране изучено недостаточно, несмотря на то, что изучение художественных текстов в мире литературы изучено глубоко. В текстологии периода независимости была проделана значительная работа по систематизации литературного наследия

просвещенных художников, живших и творивших в литературной среде Коканда в конце XIX - начале XX вв., равно как и его творческое наследие не было объективно исследовано в контексте коммунистической идеологии, он не был полностью исследован в период независимости. Следовательно, существует необходимость в сравнительном изучении рукописей поэзии Мукими и переоценке поэтических произведений поэта на основе современных достижений в области текстовых и литературных источников. По-разному трактовались масштабные лирические и юмористические произведения Мукими. Выделены особенности творчества Мукими, эффективные методы обучения поэзии поэта, а также современные методы обучения, преимущества и возможности инновационных образовательных технологий. Лингвистика сегодня добилась больших успехов во всех областях языка.

One of the main scientific problems in the world of textual criticism is the study of history and text editing. The study of this issue has had particular importance, since the history of the text includes changes in the laboratory of poetry, from goals and plans in the process of forming the text to the current state of the text. Literary editing in our country has not been sufficiently studied, despite the fact that the study of literary texts in the world of literature has been studied deeply. In the textual criticism of the period of independence, significant work was done to systematize the literary heritage of enlightened artists who lived and worked in the literary environment of Kokand in the late XIX - early XX centuries, as well as his creative heritage was not objectively and fully realized. researched in the context of communist ideology, it was not fully researched during the period of independence. Consequently, there was a need for a comparative study of the manuscripts of Mukimi's poetry and a reevaluation of the poet's poetic works on the basis of modern achievements in the field of text and literary sources. The features of Mukimi's creativity, effective methods of teaching poetry, as well as modern teaching methods, the advantages and possibilities of innovative educational technologies are highlighted. Linguistics today has made great strides in all areas of the language. The emergence of a number of new directions in the language (computational linguistics, psycholinguistics, mathem. linguistics, sociolinguistics) and the development of scientific research related to their study.

**Kalit so'zlar (Key words)**

**O'zb:** kitobxonlik targ'iboti, adabiy manbashunoslik, Alisher Navoiy, komil inson, Bobur Mirzo, Boburnoma; Jomiy, Muqimiy, kompyuter lingvistikasi, iqtisod

**Rus:** научные проблемы, мир текстологии, изучение культуры, редактирование текста, Bobur Mirzo, Boburnoma; Jomiy, Muqimiy эффективные

методы обучения, современные методы обучения, преимущества, возможности инновационных образовательных технологий, лингвистика компьютерная

**Ingliz:** scientific problems, the world of textual criticism, the study of history , and text editing, Bobur Mirzo, Boburnoma; Jomiy, Muqimiy effective teaching methods, modern teaching methods, advanta-ges, computational linguistics, psycholinguistics, mathematical linguistics

**Kirish (Introduction).** Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan Oliy ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019- yil 11-iyulda "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish to'g'risida"<sup>1</sup>, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>2</sup>gi qaror va farmoyishlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Kontseptsiyada O'zbekiston Respublikasida OTTni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va kompleks chora-tadbirlar asoslab berilgan. Ayni paytda jamiyatda muhim rol o'ynaydigan kadrlarning o'z yo'nalishi bo'yicha chuqur bilim, malaka, kompetensiyalarga ega bo'lishi, ilg'or xorijiy tajriba va milliy pedagogik tajribaga tayanib ish ko'rishi, ijodkorlik, tashabbuskorlik sifatlariga ega bo'lishi talab qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda xar bir kasb egasining buyuk adabiyotimizning boy merosidan bahramand etish, insoniyat ongini din-u diyonatimiz, milliy qarashlarimizga zid bo'lgan g'oyalardan asrash kun tartibida turgan muhim mavzulardan biridir.

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida : "Adabiyot- xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ma'naviy meros, jumladan, adabiyot vositasida O'zbekistonning kelajagi egalari bo'lmish talaba-yoshlarni yuksak jamiyat a'zolarini shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimini ishlab chiqish, OTM professor o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda va adabiyot na'munalari bilan tanishtirishning aniq ilmiy xulosalarga tayangan badiiy estetik, ilmiy-pedagogik asoslarini belgilash, talabalarda shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish shakli va bosqichlarini aniqlash, ularning yosh xususiyatlari, tavsiya etilgan asarlarning tur va janr talablaridan kelib chiqib, badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyalarini mukammallashtirish usullarini ishlab chiqish va bu jarayonga ilg'or innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda yosh avlodni ma'nan yetuk

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish to'g'risida" gi qarori

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>2</sup>gi qaror va" PQ-2909 sonli qarori

insonlarni tarbiyalash davlat miqyosidagi muhim vazifa darajasiga ko'tarilgan. “

Ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlan"gan [1] yurtimizda aholining, xususan, yoshlarning intellektual salohiyatini o'stirish bilan bir qatorda jamiyatning ma'naviy yuksalishi uchun qonuniy asoslar yaratilgan [2,3].Ma'naviyati boy kishilar yashaydigan mamlakat kuchli bo'lishi ham muqarrardir. Targ'ibot-tashviqot, ta'lim-tarbiyaga daxldor shaxslar, idoralarning o'z faoliyatlarida jonkuyar, tashabbuskor hamda ijodkor bo'lishlari bu boradagi ishlarning samarasini ta'minlaydigan yetakchi omillardan sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi Farmonida “Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish...” [4] muhim vazifa etib belgilangan. Bu qonuniy asos OTM talabalarida kitobxonlik madaniyatini, yuksak estetik didni, badiiy tahlil kompetentsiyalarini shakllantirish orqali nutqiy kompetentlikni ta'minlash tizimini rivojlantirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”<sup>3</sup>. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida ilm va nutq madaniyati borasida qimmatli fikr - mulohazalar bildirilgan. “Bilimni buyuk bil, o'quvni ulug' bil” tamoyili asarning bosh g'oyasini tashkil etadi. U mamlakat rivojini, dunyo voqealarini tahlil qila oladigan, chuqur bilimli, siyosiy yetuk va hushyor bo'lmog'i kerak. Yusuf Xos Hojib nutq madaniyati haqida fikr yuritarkan, uni qonun ijrosi, qonun ustuvorligi, adolat, odil hukm, poklik kabi tushunchalar bilan mushtarak deb biladi. Mamlakatda adolatli qonun ustuvorligi xalq hayotini ta'minlovchi bosh masala ekanligini ta'kidlaydi. Ana shu asos ijtimoiy hayotda ustuvor bo'lishini ta'minlash lozim. El rahnomalari, boshqaruv tizimi vakillari bo'lsa, adolat bilan ish yuritadi, mamlakatda farovon turmushni ta'min etadi, shuning uchun mutafakkir bilim borasida: Yana bir hikmat:

Hazrati Odam Bilim, aqlu idrok, sabab muhtaram.

Bilimni buyuk bil, o'quvni ulug' Shu ikkov ulug'lar kishini, deb yozganida mutlaq haq edi. Bu umuminsoniy qadriyatlar, mamlakatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari bilan bevosita uyg'unligini qayd etishi lozim.Yusuf Xos Hojib insonni ulug'laydi. Har bir narsani bilish, uning tub mohiyatiga yetish, insonning qo'lidan keladi, deb aytadi. Halq, millat mavqeyi davlat boshqaruv tizimiga qarab belgilanadi. Chunki davlat boshlig'i, mamlakat boshqaruv tizimi ijtimoiy hayotga, kishilar ma'naviy, ahloqiy turmush tarziga ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Farovon, osoyishta turmushning asosini adolatli boshqaruv tizimi tashkil qiladi.Shu nuqtai nazarda jahon

madaniyati va adabiy-estetik tafakkuri rivozhida matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi muhim o'rin tutadi. Asrlar asosida saqlanib kelayotgan turli davrlarga mansub qo'hhna manbalarini o'rganish, ulardan jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanish dolzarb vazifalardandir. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonidagi ta'lim sohasiga oid bandlar ijrosini ta'minlashda [4], 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712son Farmonida ta'kidlangan "...o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individallashtirish tamoyillarini bosqichmabosqich tatbiq etish" ko'rsatmasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda [5], shuningdek, mamlakat rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus"dagi to'rtinchi "yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan" tashabbusini hayotga joriy qilishda [6] hamda mazkur masalaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Ularning ahamiyati quyidagilardan iborat: adabiyotning namunasi sifatida asarlardan parchalar talabalar badiiy didini o'stirishga xizmat qiladi ; zamonaviy tilga muvofiqlashtirilgani bois she'riy parchani misrama-misra tahlil qilib, undan xulosa chiqarish ko'nikmasi shakllantiriladi; parchalar yordamida talabalar jamiyatdagi tabaqalarning badiiy talqini bilan tanishib, adabiyot va ijtimoiy hayot munosabati haqida tasavvurga ega bo'la boshlaydilar; "Shoirlar – so'z teruvchilar" parchasini o'rganish asnosida badiiy ijod martabasi, shoir Muqimiyning jamiyatda tutgan o'rni, ijod ahliga qanday munosabatda bo'lish lozimligi to'g'risida tushuncha beriladi . Muqimiy va boshqa shoirlar asarlaridan parchalar nodonlar va nafsni qoralashga bag'ishlangan she'rlar o'rganiladi. "Devoni hikmat"ning tili hozirgi adabiy tilga juda yaqin. Tavsiya etilgan hikmatlar to'g'risida gap ketganda, yuqorida "Qutadg'u bilig"ga nisbatan aytilgan fikrlarni bildirish mumkin; talabalar insonning ma'naviy darajalari: nodonlik va oqillikning she'riy talqinini o'rganadilar, asarlarda aks etilgan iqtisodiy muammolarni mushohada etadilar(TK3); adabiyot bilan bevosita bog'liq bo'lgan tasavvuf ta'limotidagi asosiy kategoriyalardan biri bo'lmish nafs tushunchasi bilan tanishtiriladi. (TK3); Muqimiy lirikasi. "Ey, yori jonim", "Navbahor", "Toleim", "Saylov" g'azallari, "Tanobchilar" satirasi [124; 158,170,157,44,37-b.]. Quyidagi didaktik maqsadlar ko'zlanadi: talabalarda mumtoz badiiy tafakkurga xos jihatlar hamda mumtoz she'rlarni tahlil qilish malakalari mustahkamlanadi ; biografik omillarga ko'ra she'rlarni sharhlash malakasi rivojlantiriladi ; jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar talqini aks etgan she'rlarni o'rganish orqali talabalarning bugungi kun

voqeliklariga munosabatini shakllantirish orqali ularda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi mustahkamlanadi . Muqimiyning o'rganish uchun tavsiya etilgan asarlarni o'zbek mumtoz adabiyotining millatimiz badiiy-estetik qudrati, umuminsoniy qadriyatlarga esh falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etgan eng sara namunalar deyish mumkin. matnda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tasnifi, qahramonlar haqida shaxsiy mulohazasini bildirish orqali o'quvchilarning badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi mustahkamlanadi ; asardagi adolat, davlat, aql, qanoat singari ijtimoiy hamda ma'naviy tushunchalarning ramziy tarzda gavdalantirgan to'rt timsol tavsifini sharhlash orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini o'stirish vazifasi ado etiladi. Asarlar o'zbek mumtoz adabiyotining noyob durdonalaridan bo'lib, o'qitishdan ko'zlangan maqsad hamda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda beqiyos manba sanaladi (barcha tayanch hamda fanga oid kompetensiyalar);asarlarda insonning markaziy o'rin tutishi, barcha voqeliklar ortida ramziy-majoziy shaklda ulkan hayot haqiqatlari yashiringanligi, aksariyat mumtoz na'munalar shunday tushunilishi lozimligi talabalarga singdira boriladi; Mumtoz adabiyot namunalari mazmuniga ko'ra turli ruknlarga sohib yuborilgan va alohida rukn ostida birin-ketin joylashtirilmoqda. Ikkalasing ham o'ziga xos afzalligi bor. Birinchisi mavzu, mazmun va g'oyasiga ko'ra hamohang bo'lgan boshqa asarlar (xalq og'zaki ijodi, yangi davr adabiyoti namunalari) bilan yagona rukn ostida talabalarda muayyan ma'naviy sifat, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda yaxshi natija beradi. Lekin biz uchun ikkinchisi ma'qul ko'rindi. Negaki, asarlar bilan talaba birin-ketin tanishar ekan, bir asar orqali shakllangan bilim, ko'nikma va malaka keyingi namunalarda izchil mustahkamlana boradi. Natijada ma'lumotlar birin-ketin yig'ilib, yaxlit bilimga; orttirilgan ko'nikmalar rivojlanib shakllangan malakaga; his qilingan tuyg'ular bora-bora ruhiy idrokka aylanadi. Ana shu yaxlit bilim, shakllangan malaka va ruhiy idrok tarbiyalanuvchi shaxsiyatida birlashib, adabiyotni anglash tajribasini yuzaga chiqaradi. Biz ushbu tavsiyalarimizda, avvalo, adabiy asarlardan didaktik tahlilda amal qilinishi lozim bo'lgan mavzulararo uzviylik hamda badiiy asarni tashkil qiluvchi qismlarning aloqadorligiga asoslangan tizimlilik tamoyiliga rioya qildik. Bu tizimlilik taklif etilgan asarlarni o'rganishda o'zaro bog'lanish hosil qiladigan hamda davr voqeligini badiiy asardagi in'ikosini tadqiq etadigan tarixiylik tamoyili bilan bevosita aloqador. Ayni paytda bu ikki tamoyilga faqat quruq shakliy yondashish ustuvor bo'lib qolmaslik uchun "...adabiyot o'qitish ishi juda ko'p darajada bog'liq bo'lgan" [50; 96-b.] hissiylik tamoyiliga rioya qilish lozim. Hissiylik esa o'z o'rnida "...asarni tahlil qilishda asosiy tamoyillardan biri estetik asoslarning ustuvorligi tamoyili"dan [50; 93-b.] kelib chiqadi. Estetikaning hissiy ta'sir omili ekanligi barchaga ayon haqiqat. Ma'lumki, har bir inson o'z yoshida ma'lum hayotiy haqiqatlarni idrok eta oladi, shuningdek, muayyan tuyg'ularni qalb dunyosidan o'tkazishga qodir bo'ladi. Bu haqiqat tavsiyalarimizda individuallik tamoyiliga ham e'tibor qaratishni taqozo etdi. Shu

o'rinda individuallik "har bir o'quvchining o'ziga xos ruhiyati, kechinmalar tizimi, ta'sirchanlik xususiyati, estetik tajribasi borligini hisobga olish yo'li" [50; 95-b.] ekanligini ham eslatib o'tamiz. Ma'naviy tarbiya yetakchiligi uchun unda pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik tamoyilining ustuvor ekanligi tasviyalar ishlab chiqishda diqqatimiz markazida bo'ldi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"dan ijtimoiy toifalar berilgan olti parcha o'rganiladi. Ular quyidagilar: "Olim ilmi elga bo'ladi mash'al", "Shoirlar so'z teruvchilar", "Dehqonning qo'li keng", "Savdogar – nomingni elga yetkazar", "Chorvador – hamma hayvonlarga sardor", "Hayratli ishlarning egalari". Matnlar shoir Sa'dulla Ahmad she'riy tabdil qilgan "Qutadg'u bilig"ning maxsus nashridan tanlandi (nashrga tayyorlovchi Boqijon To'xlijev) [201; 93–97-b.]. Ularning ahamiyati quyidagilardan iborat: parchalardan jamiyatdagi tabaqalarning badiiy talqini bilan tanishib, adabiyot va ijtimoiy hayot munosabati haqida tasavvurga ega bo'la boshlaydilar(TK4); "Shoirlar – so'z teruvchilar" parchasini o'rganish asnosida badiiy ijod martabasi, shoirning jamiyatda tutgan o'rni, ijod ahliga qanday munosabatda bo'lish lozimligi to'g'risida tushuncha beriladi (TK4). "Tasavvur va ijodiy qobiliyatni shakllantirish hamda to'g'ri yo'naltira olish estetik tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi" [34; 33-b.]. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan nodonlar va nafsni qoralashga bag'ishlangan she'rlar o'rganiladi. "Devoni hikmat"ning tili hozirgi adabiy tilga juda yaqin. Tavsiya etilgan hikmatlar to'g'risida gap ketganda, yuqorida "Qutadg'u bilig"ga nisbatan aytilgan fikrlarni bildirish mumkin;

Muqimiy lirikasi. Shoirning "Sog'indim" radifli g'azali, "Anor", "Yong'oq", "Kun va tun" chistonlari tavsiya etiladi. Bu she'rlar sho'rolar davrida ham, mustaqillikdan keyin ham adabiyot darslarida o'rgano'rinli bo'lishini ma'qullaydilar. Shoirning tavsiya etilayotgan she'rlari xususidagi mulohazalar quyidagicha: "Ey, yori jonim", "Navbahor", "Toleim", "Saylov" g'azallari, "Tanobchilar" satirasi [124; 158,170,157,44,37-b.]. Quyidagi didaktik maqsadlar ko'zlanadi: mumtoz badiiy tafakkurga xos jihatlar hamda mumtoz she'rlarni tahlil qilish malakalari mustahkamlanadi; biografik omillarga ko'ra she'rlarni sharhlash malakasi rivojlantiriladi ; jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar talqini aks etgan she'rlarni o'rganish orqali bugungi kun voqeliklariga munosabatini shakllantirish orqali ularda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi mustahkamlanadi . matnda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tasnifi, qahramonlar haqida shaxsiy mulohazasini bildirish orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetentsiyasi mustahkamlanadi ; adolat, davlat, aql, qanoat singari ijtimoiy hamda ma'naviy tushunchalarning ramziy tarzda gavdalantirgan to'rt timsol tavsifini sharhlash orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini o'stirish vazifasi ado etilad. Biz ushbu tavsiyalarimizda, avvalo, adabiyotdan didaktik tahlilda amal qilinishi lozim bo'lgan mavzulararo uzviylik hamda badiiy asarni tashkil qiluvchi qismlarning aloqadorligiga asoslangan tizimlilik tamoyiliga rioya qildik. Bu tizimlilik taklif etilgan asarlarni o'rganishda o'zaro

bog'lanish hosil qiladigan hamda davr voqeligini badiiy asardagi in'ikosini tadqiq etadigan tarixiylik tamoyili bilan bevosita aloqador. Ayni paytda bu ikki tamoyilga faqat quruq shakliy yondashish ustuvor bo'lib qolmaslik uchun "...adabiyot o'qitish ishi juda ko'p darajada bog'liq bo'lgan" [50; 96-b.] hissiylik tamoyiliga rioya qilish lozim. Hissiylik esa o'z o'rnida "...asarni tahlil qilishda asosiy tamoyillardan biri estetik asoslarning ustuvorligi tamoyili"dan [50; 93-b.] kelib chiqadi. Estetikaning hissiy ta'sir omili ekanligi barchaga ayon haqiqat. Ma'lumki, talaba ma'lum hayotiy haqiqatlarni idrok eta oladi, shuningdek, muayyan tuyg'ularni qalb prizmasidan o'tkazishga qodir bo'ladi. Bu haqiqat tavsiyalarimizda individuallik tamoyiliga ham e'tibor qaratishni taqozo etdi. Shu o'rinda individuallik "har bir o'quvchining o'ziga xos ruhiyati, kechinmalar tizimi, ta'sirchanlik xususiyati, estetik tajribasi borligini hisobga olish yo'li" [50; 95-b.] ekanligini ham eslatib o'tamiz.

**Tahlil va natijalar. (Analysis and results).** XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asridir. Talaba yoshlarimiz uchun misli ko'rilmagan imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda. Ayni davrda insoniyat ko'rmagan muammolar girdobiga tushib qolmoqda. Bugungi murakkab zamonda ijodkorlarning mehr- oqibat, ezgulik, insonparvarlikni ulug'lab yozgan badiiy asarlari juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg'or qismi bo'lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlarini, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyosdir.

**Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations).** Badiiy adabiyot vakillarining ijod namunalarini o'rgatish va tahlil qilish, talaba yoshlarni o'zbek adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, keng dunyoqarashga ega bo'lgan ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashda adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'rni beqiyos. Shu sababli oliy ta'lim tizimida ushbu fanga oid mavzularning keng yoritilishi taqozo etiladi. Adabiyot o'qitish jarayonida, ayniqsa, she'riyatni o'rgatish mobaynida interfaol usullardan keng foydalanish talabalar tomonidan o'quv materialini chuqur o'zlashtirish, ularda yangi bilimlarni egallashga intilish, ijodiy qobiliyat, olingan bilimlarga nisbatan tanqidiy fikrlash hamda amaliyotda qo'llash kabi bugungi kun uchun o'ta muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu masalaga Muqimiy she'riyati asosida to'xtalib o'tishga harakat qildik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati : (References)

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон – 46.
2. Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. /Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: – 20–29-б.



3. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». /Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.: 3160б.
4. Мирзиёев Ш. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. – Электрон манба: [www.lex.uz/docs/4312785](http://www.lex.uz/docs/4312785).
5. Мирзиёев Ш. “Ўзбекистон Республикаси халқ таълимни тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ5712-сонли Фармони. – Электрон манба: [lex.uz/docs/3412785](http://lex.uz/docs/3412785).
6. Мирзиёев Ш. Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича бешта муҳим ташаббус. –Электрон манба: <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/03/5-tashabbus/>.
7. Каримов И. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. – Т.: Ўзбекистон, 1999. –34 б.
7. Афсаҳзод Аълоҳон. Лирика Абд ар-рахмана Джамии. Проблемы текста и поэтики. – Москва: Наука, 1988. – 328 с.
- Ballantine J. H. The Sociology of Education: a systematic analysis. – Prentice Hall, 2001. – 400 p.
18. Бобоев Т. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърини поэтикаси асосларини ўрганиш. – Т.: ДДҚ, 1997. – 268 б.
19. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Мухтасар. – Т.: Фан, 1971. – 590 б.
20. Болибеков А. Ўқувчиларда миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ҳадислардан фойдаланиш. //Тил ва адабиёт таълими. –2000. – № 6. – 35–39-б.
21. Bombaci A. The Turkic Literatures. Introductory Notes on the History and Style. – PhTF. T. 2, 1994. – 96.
22. Бондаренко С. М. Учите детей сравнивать. – Москва: Знание, 1981. – 96 с.
30. Бордовская Н. С., Реан А. А. Педагогика. Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2001. – 304 с.
31. Брушлинский А. В. Психология мышления и проблемное обучение. – Москва: Знание, 1983. – 96 с.
32. Garcin de Tassy J. Rhetorique et prosodie de langues de l’Orient musulman. – Paris: 1993. – 282 p.
36. Голубков В. В. Методика преподавания литературы. – Москва: Госучпедгиз, 2002. – 464 с.
- Давыдов В. В. Виды обобщения в обучении. – Москва: Педагогика .
- Elwell Sutton L. R. The Persian Metres. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 300 p.
- Петриева Л. И. Специфика изучения произведений русской классической литературы в старших классах гуманитарного профиля. Дис. ... докт. пед. наук. – Ульяновск: 2000. [http://www.dissercat.com /content/spetsifika-uzucheniiproizvedenii-russkoi-klassicheskoi-literatury-vstarshikh-klassakh-gum](http://www.dissercat.com/content/spetsifika-uzucheniiproizvedenii-russkoi-klassicheskoi-literatury-vstarshikh-klassakh-gum).
- Selvi D. Kaynaklariyla tasavvuf. – İstanbul: Semerkand, 2014. – 204 s.

Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barqamol-fayz-media, 2018 – 352 b.

<https://cyberleninka.ru/article/n/obrazovatelnye-vozmozhnosti-novyh-informatsionnyh-tehnologiy-v-obuchenii-inostrannym-yazykam-v-vuze>

Matthew C. Haug. Philosophical Methodology: The Armchair or the Laboratory? - NYC, 2013.

Po'latov A. Kompyuter lingvistikasi.–T., 2011.Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. -T.: Yurist-Media markazi, [http://conference.adu.uz/nmot/files/nutq\\_madaniyati\\_%20va\\_ozbek\\_tilshunosligi\\_2020.pdf](http://conference.adu.uz/nmot/files/nutq_madaniyati_%20va_ozbek_tilshunosligi_2020.pdf). Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Azimova U.A. o'qituvchi, TDIU Umida19720409gmail.

### **Elektron ta'lim resurslari**

[www.ziyonet.uz.tstu\\_info@edu.uz](http://www.ziyonet.uz.tstu_info@edu.uz) [info.com.uz](http://info.com.uz)

<http://ru.wikipedia.org> [www.elektron-lugat.zn.uz](http://www.elektron-lugat.zn.uz)

[www.scopus.com](http://www.scopus.com) Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice

<https://www.bulletennauki.com> Т. 5. №4. 2019 DOI:10.33619/2414-

[www.istanbul.edu.tr/http://www.washington.edu/](http://www.istanbul.edu.tr/http://www.washington.edu/), <http://www.uva.nl/en/home/>,

<http://london.ac.uk/http://www.uop.edu>. [www.ivran.ruhttp://elm/az/http://elm/az/](http://www.ivran.ruhttp://elm/az/http://elm/az/), [www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz);